



## BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH MASALALARI

**Najimova A.D.**

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.a.,  
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Tayanch so'zlar:** nutqiy kompetensiya, morfologik shakllar, stixiya, sensitiv davr.

**Ключевые слова:** речевая компетентность, морфологические формы, спонтанность, чувственный период.

**Key words:** speech competence, morphological forms, spontaneity, sensory period.

### **РЕЗЮМЕ:**

Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish masalalari yoritilgan.

### **РЕЗЮМЕ:**

В статье освещаются вопросы развития речи учащихся на уроках родного языка начальных классов.

### **SUMMARY:**

The article highlights the issues of speech development of students in primary school mother tongue lessons.

Bola 1-sinfga ma'lum saviyada rivojlangan nutq bilan keladi.

4-sinfni bitirgunga qadar DTSda belgilangan va o'quv dasturida rejalashtirilgan darajaga etishi va undan o'tib ketishi kutiladi. O'rganilayotgan nazariy bilimlar bolaning nutqini «sozlash» uchungina xizmat qilsa, ona tili darslaridan kutilgan miqdor va sifat o'zgarishlariga erishish to'laqonli amalga oshmaydi. Masalan, imlo qoidalari onglilik asosida so'z va so'z shakllarini to'g'ri talaffuz qilish va yozish haqida tushuncha berib, uzoq mashq orqali ko'nikma va malaka hosil bo'lish jarayonini boshqaradi, egallangan so'zlar hajmida savodxonlikni ta'minlaydi.

Ayon bo'ladiki, nazariy bilimlar o'quvchilar nutqini miqdor va sifat jihatdan o'zgartirmaydi, balki uning har taraflama to'g'ri bo'lishiga yordam beradi. Bunday vaziyatda nutqning o'sishi nisbiy tushuniladi, chunki ta'limiy jarayon nutqning to'g'ri bo'lishi, xatolarning bartaraf etilishi bilan tavsiflanadi.

Ayrim manbalarda (M.R.Lvov, S.V.Yurtaev va boshqalar) o'quvchilar nutqini yangi so'zlar, grammatik vositalar, sintaktik qurilmalar bilan boyitish jarayoni



nutq o‘stirish deb tushuntiriladi. Bizning ta’kidlashimizcha, bunday yondashuv masalani hal etishning tub mohiyatini ifoda etadi. Ba’zi metodik adabiyotlarda fikrni bog‘lanishli bayon etish bolalarning ko‘nikma va malakalari ustida olib boriladigan ishlar ham nutq o‘stirish deb hisoblanadi. Nihoyat, ayrim metodist olimlar, mutaxassislar nutqning kommunikativ jihatini o‘rganishni ham nutq o‘stirish deb biladilar.

Bugungi kun amaliyotida ona tili o‘quv fanidan nimaiki o‘rganilsa, hammasi nutq o‘stiradi, degan fikr ustuvor. Boshqacha aytganda, ta’lim mazmuni, ish usullari va mashq turlari orqali erishiladigan natijalar jami o‘quvchilarning ham bilimini oshiradi, ham og‘zaki va yozma nutqini o‘stiradi, deya hisoblanadi.

Bunday yondashilganda, ta’limdagi biror parametr bilan tavsiflanuvchi o‘zgarishlar yaqqol ko‘zga tashlanmaydi, ularni shu parametrlar bo‘yicha (nazariy bilimlar bundan mustasno) alohida nazorat qilishning iloji yo‘q. Chunki «nutq o‘stirish» tushunchasi o‘ta umumlashgan, ma’no ko‘lamining poyoni yo‘qday tuyuladi. Holbuki, ona tilini o‘qitishda o‘qituvchi o‘quv fanining har bir darsda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan vazifalarini bilib, nutq o‘stirishga qaratilgan mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilsagina, bolalardagi o‘shishni ham, o‘z yutuq va kamchiliklarini ham ko‘ra boshlaydi, natijalarni baholash ham mumkin bo‘ladi.

Metodik adabiyotlarda tilga olinishiga ko‘ra, nutqiy kompetensiya ikki xil sifat o‘zgarishlari asosida yuzaga keladi: 1) nutqning to‘g‘riligi, 2) nutqning boyligi. Bizningcha, ona tili darslarida o‘rganiladigan bir qator nazariy ma’lumotlar (asosan, talaffuz va imlo qoidalari) nutqning to‘g‘ri bo‘lishiga qaratilgan. Yangi so‘zlar, yangi morfologik shakllar, o‘quvchilar uchun notanish sintaktik qurilmalar nutqni boyitadi.

1-sinfga o‘quvchi yoshiga mos saviyada rivojlangan nutq bilan keladi. Lekin bu nutq so‘zlashuv-maishiy uslubga xos bo‘lib [1;3-b.], sheva ta’siri bilinib turadi, turli xil talaffuz xatolari ko‘p bo‘ladi. Uning nutqi darsdan darsga, sinfdan sinfga adabiy talaffuzga monand bo‘la boshlaydi. Umuman, odam tug‘ilganidan to‘ulg‘aygan yoshga etganga qadar, yanada aniq aytadigan bo‘lsak, umrining oxirigacha o‘shishdan to‘xtamaydi: nutqi boyib boradi. Maktab ona tili ta’limi o‘quvchini hayoti davomida amal qiladigan talaffuz va imlo qoidalari, morfologiya va sintaksisga doir bilimlar bilan qurollantiradi. U maktabdan keyin ham boyib borayotgan o‘z nutqining to‘g‘riligini nazorat qilish o‘quviga ega bo‘ladi.

Biz N.N.Algazinaning quyidagi fikriga ko‘shilamiz: «ko‘nikmalar – bu ongli faoliyatning amalga oshuvi jarayonida shakllanadigan avtomatlashtirilgan komponentlaridir. ...avtomatlashtirilgan so‘zi avval muayyan qoidalarni ongli ravishda qo‘llashga asoslanadigan va shundan keyingina mashqlar jarayonida avtomatlashtirishga olib boriladigan harakatlar sifatidagi ko‘nikmani hosil qilish usulini anglatadi» [2;3-b.].

Bir qarashda nutqning to‘g‘riligini ta’minlash nutq o‘stirish emasdek ko‘rinadi. Aslida ham shunday: nutqning to‘g‘riligi o‘z holicha nutqni o‘stirmaydi. Lekin

nutq boyligiga erishish ham nutqni to‘laqonli rivojlantirmaydi. Turli kanallar yordamida boyib borayotgan nutq savodli bo‘lmasligi mumkin. Bizningcha, nutqning to‘g‘riligi va nutqning boyligi qo‘shilib, nutqni kutilgan talablar darajasida o‘stirishni ta‘minlaydi.

O‘quvchilar nutqining to‘g‘riligi nazariy bilimlarni o‘rganish orqali ta‘minlanadi. Bunda «til – me‘yor – nutq mutanosibli» printsiptiga amal qilinadi. «Me‘yor (norma) – til birliklarini nutqning u yoki bu ko‘rinishida ishlatish qonuniyatlari va imkoniyatlari bo‘lib, ular jamiyat tomonidan belgilangan va aniqlangandir» [3;7-b.]. Zero, ona tilining maktab ta‘limida o‘rganiladigan qonun-qoidalarini me‘yoriy bo‘lib, nutqning to‘g‘riligi shu me‘yorlar asosida o‘lchanadi.

Nazariy bilimlar, shu bilimlar yuzasidan egallanadigan ko‘nikma va malakalar nutq o‘stirish uchun turli darajada, turli vaqt o‘lchovida xizmat qiladi. Ularning samarasi ham bir xil emas. Muammo shundaki, biri bugun nutq o‘stirishning to‘g‘riligiga yordam bersa, ikkinchisi kelgusida ish beradi. Birining ko‘magi oz bo‘lsa, yana biriniki ko‘proqdir. O‘qituvchi shuniyam aniq bilishi kerakki, nazariy bilimlar, ko‘nikma va malakalar hosil qilish uchun mo‘ljallanadigan mashqlar o‘quvchilarni nutqiy mashqlarga tayyorlaydi, lekin bevosita ularning o‘rnini bosmaydi.

I–IV sinflar davomida o‘rganiladigan mavzular oz-ozdan o‘quvchilar nutqini sozlab boradi, nutqning to‘g‘rilik dinamikasi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Nuqsonlar esa ko‘p: ular nazariy bilimlar, ko‘nikma va malakalarni egallashdagi nuqsonlar, talaffuz va imlo xatolari, so‘zni shakllantirish, gap tuzishdagi xatolar, matn yaratishdagi qiyinchiliklar. Shulardan kelib chiqib, ona tili o‘qitish metodikasiga doir adabiyotlarda me‘yor sifatida uchta yo‘nalish ajratilgan: 1) so‘z ustida ishlash; 2) so‘z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog‘lanishli nutq ustida ishlash [4]. Nutq o‘stirish uchun uchala yo‘nalishning birday ahamiyati bor. Egallanayotgan nazariy bilimlar esa ushbu yo‘nalishlarning biri, xolos.

«Ona tili ta‘limining dolzarb masalalari» maqolasida o‘qitirishicha, «Ona tili darslarida «o‘quvchilarga fikrni anglash hamda ifodalashning turli mexanizm va usullarini o‘rgatish, bunga asoslangan mashq, topshiriqlar tizimini ishlab chiqish ... zarur» [5;4-b.]. Ushbu fikrdan nutqni boyitish uchun xizmat qiladigan mashqlar tizimini yaratish kerakligi ayon bo‘ladi.

Muloqot ishtirokchilarining so‘zini to‘liq anglash uchun leksik va grammatik materiallar boyligi darkor. So‘z boyligi ikki xil bo‘ladi: faol so‘zlar boyligi, passiv so‘zlar boyligi. O‘quvchining faol so‘zlar zahirasi qancha boy bo‘lsa, u fikrni aniq va ravshan ifodalashda shuncha o‘zini erkin his etadi; u passiv so‘zlar boyligini qanchalik ko‘p to‘plasa, o‘z saviyasiga mos har qanday matn mazmunini tez, to‘liq va chuqur tushuna oladi. O‘quvchining nutqi sintaktik qurilmalarga qanchalik boy bo‘lsa, u rang-barang, eng nozik fikrlarni ifodalash layoqatiga ega bo‘la boradi. Fikrlar mantiqiy izchil, asosli bayon etilsa, nutq tinglovchini ishtirish qudratini kasb etadi.



Bizningcha, nutq o‘stirishda darslarda o‘rganiladigan til hodisalari o‘quvchilarning nutqiga kirgan-kirmaganligiga, yo‘l qo‘yadigan xatolariga ko‘ra, yondashilishi kerak. Bunda ularning qay biri bolalar nutqida ishlatilmasligi aniqlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili ta‘limi mazmuni bilan nutq o‘stirish mazmuni ana shu masalalarda o‘zaro kesishadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan sintaktik mavzular (shu mavzular doirasida sintaktik qurilmalar) ro‘yxati aniq. Bular quyidagilar: gap, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari (darak gap, so‘roq gap, buyruq gap, his-hayajon gap), sodda gap, yoyiq sodda gap, qo‘shma gap, uyushiq bo‘lakli gap, uyushiq bo‘laklarning o‘zaro bog‘lanishi; undalmali gap, ko‘chirma gap, dialog. Ular o‘quvchilarning hikoya qilishlari, matn yaratishlari uchun zarur sintaktik qurilmalar boyligini ifoda etadi. O.O.Xarchenko o‘quvchi nazariyadan tashqari fikrni rivojlantirishga erishish imkonini beradigan xususiy malakalar, mavzuviy birlik va gaplarning qurilishi jihatidan bog‘lanishlilik, yaratilayotgan matnning nutqning ma‘lum tipi va uslubiga tegishlilik, ya‘ni ularsiz matn to‘laqonli bo‘lmaydigan jihatlarini egallashi kerak deb hisoblaydi [6;36-b.] va matn tuzish qobiliyatini matniy (tekstovaya) kompetentsiya deb ataydi.

Darsliklardagi ta‘lim mazmuni bir qadar turli kanallar orqali (masalan, oilada, boshqa o‘quv fanlari darslarida va h.k) o‘quvchilar nutqiga kirib ulgurgan morfologik shakllar va sintaktik qurilmalar ko‘lamidan ancha oz bo‘lishi tabiiy, chunki tilning behisob boyligini nazariy ma‘lumotlar orqali boshlang‘ich sinflardayoq taqdim etishning sira iloji yo‘q. Agar o‘qituvchi dasturiy grammatik materiallar orasida o‘quvchilar nutqiga kirib ulgurmaganlarini aniqlasa, mashq materiallarida bunday til hodisalari mavjud bo‘lsa, ularni amaliy o‘rgatishga ko‘proq vaqt ajratish, ular bilan ko‘proq shug‘ullanish choralari ko‘rish, ya‘ni ushbu vositalarni bolalar nutqiga singdirish, shu vositalar bilan nutqini boyitishga astoydil harakat qilishi darkor.

Odatda, bola tengqurlari va kattalar bilan muloqotda bo‘lib, tarbiyalanadi, shu orqali o‘zi bilmagan ko‘p narsalarni bilib oladi. Ruhshunos olim Z.P.Klichevaning ogohlantirishicha, «Agar bu yoshda bola tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qila olmasa, do‘stlashishni o‘rganmasa, o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlariga ishonch kasb etmasa, bu ishni keyinchalik (sensitiv davr chegarasidan o‘tganda) amalga oshirish ancha qiyin bo‘ladi» [7;3-b.]. Lekin stixiyali ravishda faqat muloqot orqali egallanadigan til har doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Tilning shunday muhim jihatlari bor, o‘quvchilar ularni bu tarzda o‘zlashtirishlari mumkin emas.

Shuni ham e‘tirof etish kerakki, o‘quvchilar nutqini yangi so‘zlar, grammatik vositalar, sintaktik qurilmalar bilan boyitish jarayonini nutq o‘stirish deb tushunish bir jihati bilangina (ham miqdor, ham sifat ko‘rsatkichlarini ta‘minlagani uchun) lozim desak, bu bilan masalaning tub mohiyatini ifoda etgan bo‘lamiz. Ba‘zi metodik adabiyotlarda [8] fikrni bog‘lanishli bayon etish ko‘nikma va malakalari

ustida olib boriladigan ishlar ham nutq o‘stirish deb hisoblanadi. Nihoyat, metodist olimlar, mutaxassislarning deyarli hammasi nutqning kommunikativ jihatini o‘rgatishni ham nutq o‘stirish deb biladilar.

Yuqorida nazariy bilimlar haqida aytilganlarni umumlashtirib aytish joizki, ona tilini o‘qitish mazmunida uch xil til hodisalarini farqlash lozim bo‘ladi: 1) o‘quvchilarning mavjud nutqiga deyarli ta’sir ko‘rsatmaydigan nazariy bilimlar, 2) to‘g‘riligini ta’minlash tarzida ularning nutqini o‘stiradigan til hodisalari, 3) nutqni yangi morfologik shakllar va sintaktik qurilmalar bilan boyitadigan til hodisalari. Ularni o‘rgatish masalalarini hal etishda ana shu uch guruh grammatik materiallarning farqli jihatlari hisobga olinishi kerak, deb o‘ylaymiz.

Xullas, ona tili darslarida har uch yo‘nalishdagi ish turlariga o‘ziga yarasha vaqt va kuch sarflash talab qilinadi. Bu ishlarga qancha vaqt va kuch sarflash esa, bir tomondan, davlat ta’lim standarti talablarining ijrosiga, o‘quv dasturining mazmuni va darslik imkoniyatlariga, ikkinchi tomondan, o‘qituvchining dars berish mahoratiga bog‘liq.

Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish masalalarini o‘rganishda xorijiy va mahalliy olimlarining ilmiy xulosalari va tavsiyalaridan foydalanildi. Zero, boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish masalalari shu metodist olimlarining tadqiqot ishlari hamda metodik qo‘llanmalari, ilmiy maqolalarida yoritilgan, ularda qaysi mashq turlari o‘quvchilarni nutq o‘stirishga tayyorlashi, qaysilari tom ma’nodan shu maqsad uchun xizmat qilishi ilmiy asoslangan.

#### Adabiyotlar:

1. Кустарева В.А., Никитина Н.К., Рождественский Н.С. и др.; Методика грамматики и орфографии в начальных классах/ Под ред. Н.С.Рождественского. – 2-е изд. – М.: Просвещение, 1979. – 239 с.
2. Алгазина Н. Н. Формирование орфографических навыков: Пособие для учителя. – М.: Просвещение, 1987. – 160 с.
3. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 30 б.
4. Қосимова К., Матчонов С., Фуломова Х., Йўлдошева Ш., Сариев Ш. Она тили ўқитиш методикаси: Бошланғич таълим методикаси факультети талабалари учун дарслик. - Т. – 2006. –523 б.
5. Менглиев Б., Сайфуллаева Р., Махмудова Г., Сувонова Х. Она тили таълимининг долзарб масалалари // Тил ва адабиёт таълими. – 2008. 9-сон. – Б. 3-11.
6. Харченко О.О. Через постижение «тайн языка» – к текстовой компетенции // Начальная школа. – 2007. – № 5. – С. 36–43.
7. Клычева З.П. Ощущение в учебно-воспитательном процессе как фактор формирования личности учащихся начальных классов: Автореф.дисс. ... канд. психол. наук. – Ташкент: 2005. – 21 с.
8. Бекниязова Н. Бошланғич синфлар она тили дарсларида ўқувчиларга матн яратишни ўргатиш методикаси (таълим ўзбек ва қорақалпоқ тилларида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Монография. – Тошкент: «Фан ва технологиялар», 2012. – 160 б.